

HISTORY OF THE CHURCH OF SAINT ALEXANDER NEVSKY IN THE CITY OF TERMIZ

Abdullaeva Iroda, Sunatova Rukhsora, Nurmatova Husnora

3rd year students of the history education department of the Faculty of Pedagogy and Social Sciences of the Termez State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO.

Keywords: Termiz, Central Asia, Alexander Nevsky, Bukhara Emirate, Amu Darya.

Abstract

This article discusses the history of the Church of Saint Alexander Nevsky in the city of Termiz, Surkhandarya region, and its significance today.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2025 LWAB.

Kirish.

XIX-asrda Angliya hukumati va Rossiya imperiyasi o'rtasida O'rta Osiyo erlari talash hududga aylanadi. Ikkala davlat ham O'rta Osiyo hududini bosib olish va bu erlarda o'z hukmronligini o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalarini yuboradi. O'rta Osiyo erlarini egallash maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiyalarda Rossiya imperiyasining qo'li baland keldi. Rossiya O'rta Osiyoga bir qator harbiy yurishlar uyishtirdi. Rossiya imperiyasi ko'zlagan maqsadida erishdi, 1873-yil 28-sentabrdagi kelishuvga ko'ra Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi tomonidan qaram davlatga aylantirildi. 1888-yil 23-iyundagi qo'shimcha kelishuvga ko'ra, O'rta Osiyoga yana harbiy yurishlar amalga oshirildi. 1893-yil 15-yanvarda Buxoro amiri Said Abdulahad (1885-1910) tomonidan Termiz Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tkazildi. Ruslar Termizda qolib, bu erda mudofaa inshootlari qurishadi. Rossiya imperiyasi o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida bu erda ko'p sonli harbiy qismlarni joylashtirdi. Rossiya hukumatining Termizni o'zlashtirishdan asosiy maqsadi Amudaryo bo'yida harbiy-strategik nuqtaga ega bo'lish edi. Chunki Termiz shahri bevosita Afg'oniston bilan chegaradosh edi. Chor hukumati Afg'oniston orqali Hindistonga chiqish va savdo-sotiqni yo'lga qo'yishni ham ko'zda tutgan edi. 1858-yilda Hindiston Angliya hukumati tomonidan egallandi, Rossiya imperiyasi ham O'rta Osiyo hududini to'liq egallagandan so'ng, ikki davlat o'rtasini Afg'oniston ajratib turadigan bo'ladi. Shu tufayli ham Rossiya imperiyasi uchun Termiz muhim ahamiyat kasb etardi. Qo'shin va tuzilmalar kiritilgandan so'ng maorif, ma'rifat, ilm-fan, madaniyat, san'at birmuncha rivojlanadi. Ular orasida Termiz shahrida qurilgan **Avliyo Aleksandr Nevskiy** nomidagi ibodatxona alohida ahamiyat kasb etadi. Rossiya imperiyasining asosiy aholisi xristianlik dinining pravaslav mazhabiga e'tiqod qilar edi va imperiyada xristianlik diniga e'tibor katta edi. Ibodatxona 9-10 Turkiston otishma polki uchun qurilgan edi. Cherkov harbiy cherkovlar turiga ko'ra Harbiy vazirlik tomonidan ajratilgan 44.000 rubl mablag' evaziga qurilgan. Qurilish ishlari 1898-yil avgustidan 1902-yil martigacha me'morlar Fyodor Verbitskiy va Fyodor Smirnov (Vikipediya ma'lumotiga ko'ra 1901-1905-yillarda) tomonidan olib borilgan, hammasi bo'lib Rossiya imperiyasida 1917-yilgacha kamida 64 ta shunday cherkov qurilgan. Ma'bad pishiq qurilgan va suvoqlangan. Cherkovda katta qo'ng'iroq minorasi va ikonastaz bor edi. Ma'badning ichki maydoning o'lchami 24x16 metr edi. Shuningdek, ma'badda ko'p sonli piktogramma va cherkov idishlari bor edi.

1910-yilning ikkinchi yarmigacha cherkov 9-Turkiston polkiga tegishli bo'lib, Xudoning odami Avliyo Aleksey nomiga nomlangan (17-mart patronlik bayrami kuni) va cherkovning birinchi ruhoniysi Vasilii Pavlovich Blagoveshchenskiy maxsus buyruq bilan Petroaleksandrovskdan (hozirgi Qorqaalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani) Termizga ko'chirilgan. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar yo'q.

Tadqiqot va usullar.

1917-yildagi Fevral inqilobi Chor Rossiyasi hukumatini ag'dardi: 1917-yil 14-sentabrda Muvaqqat hukumat Rossiyani Respublika deb e'lon qilgan. 1922-yil 30-dekabr kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tashkil qilindi. Sobiq ittifoq davrida milliy masalalar bilan birga diniy masala, diniy e'tiqod masalalari va SSSRning maxsus idoralari tomonidan ta'ziyiqqa olinishi uzoq yillar davomida chuqurlashtirib bordi. Sovet hokimiyati o'zining dastlabki yillarda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator tarixiy hujjatlar qabul qildi. Rasmiy hujjatlarda qaror va farmonlarda barcha xalqlarning tengligi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, vijdon erkinligi kabi insoniy huquqlar tan olindi. Biroq, sovetcha tartiblarni o'rnatish va mustahkamlash davridayoq bolsheviklar mahalliy aholining diniy tuyg'ularini poymol qildilar. Oxir-oqibat diniy tuyg'ulari poymol qilingan xalqning Sovet hokimiyatiga bo'lgan umidlari va ishonchi so'ndi. Dastlabki yillardayoq dindor kishilar va ruhoniylar Sovet hokimyatining dushmani sifatida ta'qib ostiga olindi. 1917-1920-yillarda Sovet hokimyatining dinga munosabati dahriylikdan iborat bo'lgan edi. **Avliyo Aleksandr Nevskiy** ibodatxonasi ham 1921-yildan keyin Sovet-bolsheviklar hokimiyati tomonidan tortib olinib, dastlab yirik qurollar ombori va kasalxona sifatida foydalanilgan. 1927-yildan keyin cherkov butunlay yopildi, qo'ng'iroq minorasi butunlay buzib tashlandi. Cherkovning ikonolari va mulki boshqa cherkovlarga tarqatildi. 1960-yilga yaqin cherkovda sport zali qurildi va cherkovning ichki qismidagi barcha bezak va ikona rasmlari vayron bo'ldi, ko'pchiligi yo'qoldi.

Храм Александра Невского в Термезе



Редкое фото Л. А. Пузракова. Начало XX века.

1-rasm. Aleksandr Nevskiy cherkovi XX asr boshlari.

Muhokamalar.

1991-yildan ma'bad Rus pravoslav cherkovi tarkibiga o'tkazildi. O'rta Osiyo eparxiyasi, xalq deputatlari shahar kengashining 1991-yil 20-dekabrda avliyo knyaz **Aleksandr Nevskiy** ibodatxonasi binosini cherkov balansiga o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i qabul qilindi. O'tgan asrning 20-yillarida ushbu cherkovdan olib qo'yilgan cherkov anjomlari ham davlat o'lkashunoslik muzeyidan olib kelingan. Bular bir qancha ruhoniy liboslari, piktogramma, shamdon qolgan buyumlar saqlanmagan. Termiz shahrining jahon tarixi va madaniyatida tutgan alohida o'rnini hisobga olgan holda YuNESKO Bosh konferensiyasining 1999-yil noyabr oyida Parijda bo'lib o'tgan 30-sessiyada Termiz shahrining 2500 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash haqidagi qaroridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsining 545-sonli qarori 1999-yil 27-dekabrda qabul qilinadi. Ushbu tadbir munosabati bilan davlat tomonidan ajratilgan mablag' evaziga mahalliy hokimiyat ibodatxonani qayta tiklashni o'z zimmasiga oladi, leki mablag' etarli bo'lmaganligi uchun ibodatxonaning bir qismi qayta tiklanadi. Hozirgi kunda esa cherkov batamom tiklanayapti. Cherkovning qo'ng'irog'i, gumbazi yangilanib, hovlisi ham tekis holatga keltirilmoqda, cherkovning ichki qismi ham nasroniylik an'analarga mos ravishda bezatilgan.

Natijalar.

Cherkov ziyoratchi va sayyohlar uchun ochiq, ibodat qiluvchilar asosan shanba va yakshanba kunlari ibodat qilish uchun kelishadi. Ibodat qiluvchilar asosan rus millatiga mansub aholidan iborat. Cherkov Termiz shahri S.Soxibov ko'chasi 14-uyda joylashgan. Hozirgi kunda cherkovga ruhoniy Ismailov Rodin boshchilik qilmoqda. Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o'zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O'zbekistonda milliy va diniy bag'rikenglik hukm surmoqda. Bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurtda, bir hududda oliyjanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi.





2-rasm. Aleksandr Nevskiy cherkovi bugungi kudagi ko‘rinishi.

Xulosalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o‘rin egallayotgan bag‘rikenglik tamoyili to‘g‘risida shunday deydi: “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Л.И.ЖУКОВ. К истории христианства в Средней Азии (XIX - XX вв.). ТАШКЕНТ “УЗБЕКИСТОН” 1998. С. 271.
2. Matyaqubov Xalil Hayitbayevich O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI (o‘quv qo‘llanma). Toshkent-2021. 299 bet.
3. R.Xoliqova. Rossiya-Buxoro:Tarix chorrahasida. Toshkent-2005
4. Ollomurodov, N. (2022). SOVET XUKUMATINING DINGA MUNOSABATI VA UNING ZARARLI TOMONLARI. IJODKOR O‘QITUVCHI ILMIIY-USLUBIIY JURNAL.
5. Khasanov, S. (2024). SOCIO-ECONOMIC CONDITION OF THE FRUIT AND VEGETABLE NETWORK OF UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF INDEPENDENCE. GOLDEN BRAIN, 2(8), 154-160.

6. Abdimo'minov, B. O., & Tagirovich, T. K. (2024). Using Historical-Cultural Reminiscences for Tourism Purposes as an Example of Termez District. *World of Medicine: Journal of Biomedical Sciences*, 1(4), 6-10.
7. Gulyamova, L. (2022). Historical Geography. In *The Geography of Uzbekistan: At the Crossroads of the Silk Road* (pp. 35-96). Cham: Springer International Publishing.
8. Law, D. A. (1975). *Russian civilization*. Ardent Media.
9. Odil, M., & Sherzod, K. (2020). Sherzod Karshiev. Problems of Religious Tolerance and Interethnic Relations in Uzbekistan. *Russia and the moslem world*, (3 (309)), 71-78.
10. Savchenko, A. (2022). *Roads and Kingdoms: Two Encounters with the Nazarenes Beyond the River* (Vol. 32). Brill.